



MINTAQA AGROSANOATIDA HUDUDLARARO SUBKLASTERLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Olimjon G'ayratovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
ORCID: 0009-0004-8580-5859
agolider1987@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada mintaqqa iqtisodiyotida ishlab chiqarishni tizimlashtirishning eng maqbul yechimlaridan biri sifatida ko'rilayotgan klasterlashtirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon bir qator omillarni birlashtirib, kompleks rivojlantirishning o'ziga xos iqtisodiy tahlili, ularning ko'rsatkichlarning guruhlangan tizimi keltirilgan. Hududlarda agrosanoatni klasterlashtirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni tashkil etishda alohida e'tibor qaratiladigan ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar tadqiqi keltirilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar tarmog'i, agrosanoatni subklasterlashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, xarajatlarni minimallashtirish–klasterlar, ularning salohiyatini baholash, optimallashtirish, klasterlashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ СУБКЛАСТЕРИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОЙ ОТРАСЛИ

Абдуллаев Олимжон Гайратович
Университет экономики и педагогики

Аннотация. Агрегация агропромышленного комплекса играет важную роль в социально-экономическом развитии регионов, так как этот процесс сочетает в себе ряд факторов, представлен конкретный экономический анализ комплексного развития и комбинированная система его показателей. Обсуждены социально-экономические аспекты, которым уделяется особое внимание при организации агропромышленных кластеров в регионах для социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: сервисная сеть, субкластеризация агропромышленного комплекса, модернизация сельского хозяйства, инновационное развитие, минимизация затрат - кластеры, оценка их эффективности, оптимизация, кластеризация.

IMPROVING INTERREGIONAL SUBCLUSTERING MECHANISMS IN THE REGIONAL AGRICULTURAL INDUSTRY

Abdullayev Olimjon Gayratovich
Economics and pedagogy university

Abstract. *Aggregation of the agricultural industry plays an important role in the socioeconomic development of regions, as this process combines a number of factors, a specific economic analysis of complex development, and a combined system of its indicators. In the article the social and economic aspects that receive special attention in organizing agro-industry clusters in the regions for the socio-economic development of the regions have been discussed.*

Keywords: *service network, sub-clustering of the agricultural industry, modernization of agriculture, innovative development, cost reduction - clusters, evaluation of their efficiency, optimization, clustering.*

Kirish.

Agrosanoat korxonalarini hududlararo subklasterlashtirish asosida rivojlantirish mutloq tizimli yondoshuv asosida yuzaga chiqadi. Bunda asosiy klaster strategik manba sifatida ko'p funksional harakatni amalga oshiradi. Jumladan, bir chiziqli subklasterlararo resurs almashinuvini ta'minlaydi, axborotlashuv diapazonini kengaytiradi, subklaster a'zolarining faoliyatini rivojlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, innovatsiyalarni joriy qiladi va shu orqali iqtisodiy salohiyatini oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy nufuzini yaxshilab boradi.

Hududning agrosanoatini klasterlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon bir qator omillarni birlashtirib, sinergetik ta'sir yaratadi. Hozirgi zamonaviy ilmiy yondoshuvlarga tayanilsa, nazarda tutilayotgan omillarni hududning xususiy va umumiy iqtisodiy-ijtimoiy imdjidandan kelib chiqib tizimlashtirish mumkin bo'ladi. Hususan, Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyasida har ikki holat mavjud bo'lib, o'ziga xosligida asosiy jihat hudud YaHM tarkibida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining salmoqli hissasi borligi, ya'ni Respublika va uning tarkibiy hududlariga nisbatan eng katta ulushga egaligidir. Bu esa mintaqaga agrosanoatning, agrosanoat tizimida olib borilayotgan islohotlarning ahamiyatlilik darajasini oshishiga olib kelgan.

Muammoning qo'yilishi. Mamlakatimizda klasterlashtirish amaliyoti, agrosanoatni klaster usuli yordamida rivojlantirish jahon tajribasidan kelib chiqib, mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy potensialini, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyasini, amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashilgan keng ko'lamlı jarayonlarini bajarishga erishish.

Adabiyotlar sharhi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish axolining turmush darajasini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda (Qaror 2015; Qaror, 2021).

Ilmiy nuqtaiy nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. Agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi (Jo'rayev va boshq., 2023; Raximov va boshq., 2021).

Mintaqada agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishni modellashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishni ko'p mezonli optimallashtirish, sanoatning hududiy rivojlanishi

va uning ko'p omilli empirik modellarini tasniflash masalalari kinlarning ilmiy izlanishlaridan keng joy egallagan (Jo'rayev va boshq., 2023; Ochilov va boshq., 2020).

Mintaqaning innovasion salohiyatga egaligi savdo xizmatlarini innovasion rivojlantirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatlarning darvozasi ekanligini ta'kidlaydi (Jo'rayev, 2021; Mukhitdinov va boshq., 2021).

Hudud agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xaridor psixologiyasiga ta'sir etish motivlarini tadqiq etgan ishlarida agrosanoatni klasterlashtirish tizimini optimal tashkil etish murakkablik jihatlarini modellashtirish usullari yordamida sodda ob'yekt sifatida o'rganish g'oyasini ilgari surib, xususan modellashtirish jarayonida trend modellarning qo'llanilish mezonlarini zaruriy hodisa sifatida baholashadi (Jo'rayev, 2021).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Umuman olganda barcha subklaster a'zolari tarmoq holatida muayyan mintaqa agrosanoatini subklaster usuli yordamida mamlakat miqyosida hududlarga ko'ra klasterlashtirish natijasida rivojlanuvchi iqtisodiy sektorlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni turlicha talqin qilish mumkin. Biroq umumiy holda, shuningdek, asosiylik maqomiga ega omillarni tasniflash muximdir. Shunday omillar sifatida bizning holda hudud ijtimoiy-iqtisodiy muxitidan kelib chiqib bandlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahalliy resurslardan foydalanish jarayonlarini optimallashtirish, hududning har bir tarkibiy osthududlarini rivojlantirish, innovatsion rivojlanish omillarini rag'batlantirish kabi asosiy masalalarga e'tibor qaratildi.

Maqolamizda biz taklif etayotgan agrosanoat korxonalarini hududlararo subklasterlashtirish asosida rivojlantirish mehanizmi turli hududlardagi tarqoq shakllangan, daromad olishga yunaltirgan faoliyat yurituvchi turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar (xo'jalik yurutuvchi subyektlar) ni birlashtirgan holda, makon va zamon jihatdan farqlanuvchi harakatini 1) xizmat ko'rsatish 2) qayta ishlash, 3) bozorga chiqarish komponentlarini tizimlashtirgan harakatga aylantirib beradi.

Mintaqa agrosanoati hududlararo klasterlashtirish faoliyat yuritayotgan agrosanoat korxonalarini ko'p tarmoqli klasterlar tipiga o'tkazish bilan jadal rivojlanish bosqichiga olib chiqish mumkin. Xususan, qishloq xo'jaligi tizimidagi agrosanoat klasterining tarkibiy subklasterlarini shakllanishi uning harakat yo'nalishining kengayishini ta'minlaydi.

Shuningdek, klasterlar a'zolariga o'zaro bilimlarni almashishga imkon beradi, bu esa qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning asosiy manbasi hisoblanadi. Malakali kadrlarni tayyorlash—bu agrosanoat klasterlarining rivojlanish yunalishlaridan biri hisoblanadi.

Agrasanoatni klasterlashtirish amaliyoti hududlarda infratuzilmani, agroturizmni va ijtimoiy sohani rivojlantirishning muxim omiliga aylandi deyish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida to'qqimachilik g'allachilik va meva sabzavotchikga ixtisoslashgan agroklastlar tarmog'ini chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi, baliq yetishtirish, parradachilik ishlab chiqarishi va dorivor o'simliklar yetishtiruvchilar a'zoliciga subklasterlar bilan kengaytirishning mexanizmi fermer xo'jaligi, yordamchi dehqon xo'jaliklari, uy xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini qamrab oladi. Klasterlar transport, energiya va boshqa infratuzilmalarni rivojlantirishga investitsiyalar jalb qilish mexanizmiga aylandi. Agrosanoatni klasterlashtirish qishloq xo'jaligi rivoji bilan chambarchas bog'liq oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga yechim topishda ma'lum bir ustuvorliklarga ega deb baholaymiz.

Agroklastarlarda mazkur jarayonlarni quyidagicha talqin etish mumkin.

Gorizantal integratsiya jarayonida:

- bir turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarni yetishtiradigan fermer xo'jaliklarini birlashtirish. Bunda xususan, g'alla yetishtiradigan fermer xo'jaliklari birgalikda ishlab chiqarish va

marketing strategiyasini ishlab chiqishi, xom ashyo ta'minotini birlashtirishi va qulay marketing koridorlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- bir turdagi mahsulotni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalarni birlashtirish. Xususan, sutni qayta ishlash faoliyatini yurituvchi korxonalar birgalikda xom ashyo ta'minotini tashkil qilishi, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirishi va marketing xarajatlarini kamaytirishi mumkin bo'ladi.

Vertikal integratsiya jarayonida:

- fermer xo'jaliklarini qayta ishlash korxonalari bilan birlashtirish. Xususan, g'alla mahsulotini ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari o'z mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi un zavodlari bilan, paxta yetishtirganda to'qimachilik korxonalari bilan birlashishi xom ashyo ta'minotini nazorat qilishi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishiga olib keladi.

- qayta ishlash korxonalarini marketing va sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar bilan birlashtirish. Xususan chorvachilik tarmog'ida sutni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'z mahsulotlarini sotuvchi korxonalar, jumladan do'konlar, supermarketlar bilan birlashishi, marketing xarajatlarini kamaytirishi va iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda tadqiqotimiz jarayonida subklasterlar asosida rivojlanuvchi agrosanoat klasterlarining mintaqa iqtisodiy potensialiga ta'sir etish mexanizmining takomillashgan variant taklif etildi.

Ushbu ta'sir etish mexanizmini uchun jihatiga ko'ra tarmoqlash mumkin bo'ladi:

1). subklasterga nisbatan. Bunda quyidagi amaliy natijalarga erishiladi:

-subklaster a'zolari asosiy klaster imtiyozlaridan foydalanish.

Agroklasterlarni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida hukumat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar (subsidyalar, imtiyozli kredit dasturlar, tashqi savdo tizimidagi qo'layliklar va boshqalar) bilvosita subklaster a'zolariga ham tegishli bo'lib qoladi.

- subklaster a'zolarining asosiy klaster a'zolari bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiyasini ta'minlash. Subklaster azolari asosiy klasterning gorizantal integratsiya asosda birikkan a'zolari bilan vertikal integratsiyalashuvi natijasida biznesni rivojlantirish rejalarini tuzishi, shartnomalarni rasmiylashtirishi, resurs almashishi, axborot ta'minotini yaxshilashi, parallel rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ladi;

2) mintaqa iqtisodiyotiga nisbatan. Bunda quyidagi amaliy natijalarga erishiladi:

- oziq-ovqat ta'minoti va ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish. Mintaqa agrosanoat klasterlarini subklasterli rivojlantirish tarmoqda hosildorlik va mahsuldorlikning ortishini ta'minlaydi, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sifatni va hajmini oshiradi. Subtarmoqli agrosanoat klasterlari mahsulotni qayta ishlash va saqlash texnologiyasini kuchaytirish siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Mahsulotni sifatli saqlash, qayta ishlashni joriy qilish va kengaytirish oziq-ovqat ta'minoti va ishlab chiqarish xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi;

- aholi turmush tarzini yaxshilash, real daromadni oshirish. Subtarmoqli agrosanoat klasterlari mintaqa infratuzilmasini, xususan, ijtimoiy obyektlarni qurish, ta'mirlash, ishga tushirish, yo'lsozlikni rag'batlantirish, hududni obodonlashtirishni moliyalashtiradi. Ichki bozorni rivojlantiradi. Salohiyatli kadrlarni yetishtiradi va ularni moddiy ta'minotini yaxshilaydi. Provardida mazkur amaliyot natijasi aholi turmush tarzini yaxshilash, real daromadini oshirishga olib keladi;

Agrosanoat klasteri subklasterlar asosida rivojlanish mexanizmining eng asosiy amaliy natijalaridan biri—bu uning hududlararo faoliyatining yo'lga qo'yilganligidir. Hududlararo faoliyatining keng imkoniyatlari mavjud bo'lib, territorial cheklanishlarni yumshatish, tovar brendini shakllantirishni osonlashtirish, tashqi aloqalarga kirishishni va mahsulot (xizmatlar) bozorini kengaytirish shular jumlasidandir. Bazis klaster ko'p funksiyali bo'lishi uning korxonalar sifatida takomillashuvini anglatadi. Subklasterli tarmoqlanish ko'p funksiyalikni talab etadi

- hududda qayta ishlash korxonalari faoliyatini yo'lga qo'yishni kengaytirish, ya'ni mevasabzavotlarni konservalash, sutni qayta ishlash, donni qayta ishlash, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash, ikkilamchi xom-ashyolarni qayta ishlash korxonalarini texnik, texnologik ta'minotini intensiv amalga oshirish, malakalali fkdrlarni rag'batlantirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etishni moliyalashtirish ko'p funksiyali agroklasterning salohiyatidan kelib chiqib amalga oshirish mumkin bo'lgan iqtisodiy voqeelikdir. Mazkur holatda tarmoqda qo'shilgan qiymat oshadi;

- yangi turdagi, yangi dizaindagi, yangi nomdagi mahsulotlar yaratish agrosanoat klasterlarining tadqiqot va rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish funksiyasi bilan bog'liqdir. Bunda, ularning organik mahsulotlar, qo'shilgan qiymatli mahsulotlar, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning bozorini shakllantirish tajribalariga tayanish mumkin bo'ladi.

- mahsulotlarni diversifikatsiya qilish imkoniyati agrosanoat klasterlarining bir vaqtning o'zida ko'p xillik mahsulotlarni ishlab chiqarish funksionalligi va ishlab chiqarish quvvatining keng ko'lamliligi ekanligidir.

Umumiy holda agrosanoat subklasterlari qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni yaratishga hududiy maqomdagi ishlab chiqarish drayverlaridir. Haqiqatan, ular qayta ishlashni rivojlantirish, bozorga kirishni osonlashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish, kadrlarni tayyorlash, investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga egadirlar.

Xulosa va takliflar.

Agrosanoat korxonalarini hududlararo subklasterlashtirish asosida rivojlantirish mutloq tizimli yondoshuv asosida yuzaga chiqadi. Bunda asoiy klaster strategik manba sifatida ko'p funksional harakatni amalga oshiradi. Jumladan, bir chiziqli subklasterlararo resurs almashinuvini ta'minlaydi, axborotlashuv diapazonini kengaytiradi, subklaster a'zolarining faoliyatini rivojlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, innovatsiyalarni joriy qiladi va shu orqali iqtisodiy salohiyatini oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy nufuzini yaxshilab boradi. Kompleks shakllangan, tizimli faoliyat olib boruvchi, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi iqtisodiy obyektga hamda bir vaqtning o'zida xom ashyo ta'minotidan bozorgacha bo'lgan zanjir faoliyatiga ega xo'jalik yurituvchi subyektga aylanadi.

Haqiqatan klasterlar a'zolariga resurslarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Mahalliy xom ashyodan foydalanishni rag'batlantiradi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda jarayonning nozik xususiyatlarini doimiy nazorat qilish, jumladan, faoliyati kengaytirilgan subyekt mahsulot (xizmatlar) bozorida a'zolarining o'rnini egallash tamoilida emas, balki a'zolar funksiyalarini o'zlashtirish va ijroda ularning manfaatlarini hisobga olgan holda xarakterni tashkil etishi, ya'ni a'zolarining bozorga kirishini bitta kompleks tizim asosida osonlashtirishi zarur. Ushbu tamoil va mezon yiriklashgan klaster korxonasining monopollashuv darajasini cheklaydi va sog'lom raqobat muxitini yaratishdagi xissasini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Jo'rayev F. (2021) Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 4. – S. 377-385.

Jo'rayev F. D. (2021) Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni qisqa muddatli prognozlashtirish //Innovatsion texnologiyalar. – №. 2 (42). – S. 92-95.

Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

Mukhitdinov, Kh S., and F. D. Juraev. (2021) "Methods of Macroeconomic Modeling." *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN: 2456-6470.

Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. *Journal of Critical Review*, 7(15), 1679-1684.

Qaror (2015) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli Qarori.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi №458-son- Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori.

Рахимов, А.Н., Махматкулов, Г.К., и Рахимов, А.М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. *Американский журнал прикладных наук*, 3 (02), 21–48.